

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

ISSN 2191-2704
Oriental Journal of History, Politics and Law
2022 VOLUME - 2 Iss-10.37547/supsci-ojhpl

MODERN APPROACHES TO CIVIL SOCIETY DEVELOPMENT**Akbar Abdurakhmanov***Head of Department, PhD**Jizzakh State Pedagogical University**Jizzakh, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Civil society, global civil society, globalization, integration, universality, information integration, international relations, non-governmental organizations, social movements.

Abstract: In this article, the development trends of modern civil society, the concept of global civil society and its stages of development, and the influence of global civil society on the development of civil society in Uzbekistan are scientifically researched.

Received: 09.08.24**Accepted:** 11.08.24**Published:** 13.08.24**FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Akbar Abduraxmonov***bo‘lim boshlig‘i, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Jizzax davlat pedagogika universiteti**Jizzax, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyat, global fuqarolik jamiyat, globallashuv, integratsiyalashuv, umuminsoniylik, axborot integratsiyasi, xalqaro munosabatlar, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fuqarolik jamiyatining rivojlanish tendensiyalari, global fuqarolik jamiyat tushunchasi va uning taraqqiyot bosqichlari hamda global fuqarolik jamiyatining O‘zbekistonda fuqarolik jamiyat taraqqiyotiga ta’siri masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА**Акбар Абдухамидович Абдурахманов***Заведующий отделом, PhD**Джиззакский государственный педагогический университет**Джиззак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гражданское общество, глобальное гражданское общество, глобализация, интеграция, универсальность, информационная интеграция, международные отношения, неправительственные организации, общественные движения.

Аннотация: В данной статье научно исследуются тенденции развития современного гражданского общества, концепция глобального гражданского общества и этапы его развития, а также влияние глобального гражданского общества на развитие гражданского общества в Узбекистане.

KIRISH

Fuqarolik jamiyati rivojlanishi oid qarashlarni tadqiq etishda fuqarolik jamiyati g‘oyalarining shakllanishi tarixiy genezisi bilan bir qatorda zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyati rivojlanishida milliy va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligini ta’minlash milliy manfaatlar, milliy davlatchilik tizimining shakllanishi tadqiq etish bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyat sifatida umuminsoniy manfaatlar ustuvorligiga qaratilgan global fuqarolik jamiyati tamoyillarni ham tadqiq etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ilmiy doiralarda “Global fuqarolik jamiyati” tushunchasining mazmun-mohiyati, xususiyatlari haqida ko’plab qizg‘in bahs-munozaralar yuritilmoqda. Chunki globallashuv davrida xalqaro siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardagi barcha ishtirokchilarining faoliyati global xarakterga ega bo’ldi. Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati rivojlanishi tendensiyalari milliy davlatlar chegaralaridan tashqariga chiqadi va xalqaro hayotning bir qismiga aylanadi. Bu esa integratsiyalashuv jarayonlarining yanada tezlashishi va xalqaro miqyosda fuqarolik tashabbusini rivojlantirishga imkon beradi. Global fuqarolik jamiyati – bu milliy davlatlar chegarasidan chiqib, xalqaro miqyosda harakat qiladigan, turli mamlakatlarning faoliyatini global ijtimoiy farovonlikka yo’naltirgan jamiyatdir.

ASOSIY QISM

XX asr oxirida globallashuv jarayonlarining tezlashishi fuqarolik jamiyati haqida xalqaro munosabatlar sohasidagi yangi muvozanatlar tizimini shakllantirdi hamda fuqarolik jamiyati nazariyasiga yangi yo’nalishni keltirib chiqardi. Global fuqarolik jamiyati konsepsiysi rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o’tdi. Shunday qilib, G‘arb olimlari tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida global fuqarolik jamiyati fenomeni rivojlanishining 3 bosqichini ko’rsatib o’tdi:

Birinchi bosqich nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlarning xalqaro miqyosda rivojlanishi bilan tavsiflandi, bu asta-sekin ularning harakatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini yaratdi. Shundan kelib chiqqan holda 1972-yilda Stokgolmda BMTning atrof-muhit bo'yicha konferensiyasida turli mamlakatlarning nodavlat tashkilotlari ommaviy tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida va jamoatchilik fikridagi ahamiyatiga soya soluvchi qator ekologik forumlarni tashkil etishga muvaffaq bo’lishdi. Jamoatchilik oldida global ekologik

ijtimoiy harakat paydo bo'ldi. Shunday qilib, davlat organlarining fuqarolarning manfaatlarini yetarli darajada idrok etish va himoya qilish qobiliyati shubha ostiga qo'yildi. Ushbu davrda rivojlanayotgan global fuqarolik jamiyati atrof-muhit, inson huquqlarini himoya qilish va yadroviy urush tahdidi kabi ba'zi bir eng muhim ijtimoiy muammolarga ta'sir ko'rsatish uchun milliy davlat va rasmiy xalqaro tuzilmalarga ta'sir ko'rsatish bilan cheklandi [1,60-61].

Ikkinci bosqich Sovuq Urushning oxirlarida boshlandi, u milliy davlatlarning an'anaviy tuzilmalariga va tegishli siyosiy institatlarga, shu jumladan zamonaviy davr mafkuralariga asoslangan siyosiy partiyalarga qarshi bo'lган yangi ijtimoiy harakatlarning shakllanishida namoyon bo'ldi. 80-yillarning ikkinchi yarmida global demokratlashtirishning yangi to'lqini demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilishga asoslangan yangi demokratik global tuzilmani yaratish g'oyasi ilgari surildi. Mazkur global tuzilmalarning vujudga kelishi demokratik umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishiga, milliy davlatlarning shakllanishiga imkoniyat yaratdi.

Global fuqarolik jamiyati rivojlanishining **uchinchи bosqichi** 90-yillar boshida jahon miqyosida milliy mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi hamda globallashuv jarayonlarining keskin jadallahishi bilan uzviy bog'liq sanaladi. Global fuqarolik jamiyati evolyutsiyasining uchinchi bosqichi globallashuv natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar hamda global muammolarni hal qilishga qaratilgan ijtimoiy qatlam manfaatlarini himoya qilishni maqsad qilgan ijtimoiy harakatlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi [2,67].

Shubhasiz, global fuqarolik jamiyati muammolari bo'yicha nazariy munozaralar globallashuvning hozirgi zamonning eng muhim jarayonlaridan biri sifatida idrok etish bilan bevosita bog'liq. Globallashuv deganda biz butun dunyodagi odamlar hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining integratsiyalashuvi va o'zaro bog'liqligining o'sishi tendensiyasini tushunamiz. Globallashuv jarayoni bu bevocita milliy davlatchilik tizimiga xalqaro standartlarning tadbiq etilishi, milliy va umuminsoniy tamoyillarning uyg'unlashuvi orqali kechadigan jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda Xalqaro munosabatlar tizimida davlatlararo munosabatlardan farqli ravishda transmilliy munosabatlarning ahamiyati ortdi. Jamiyatda inson huquqlaridan tortib atrof-muhitni muhofaza qilishgacha bo'lган keng ko'lamli muammolarni hal qilish uchun birgina davlat funksiyalari bilan hal qilish imkoniyatini bermaydi. Bunday vaqtida global davlatlararo birlashmalar ko'p hollarda maslahatchi qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan maslahat organlari hamda xalqaro tashkilotlar muhim rolni o'ynaydi.

Global fuqarolik jamiyati tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf qilish, gumanitar inqirozlar, qurolli to'qnashuvlar va nizolarni, tabiiy ofat va texnogen halokatlarning oldini olish, koronovirus pandemiyasiga qarshi kurash, ekologik muammolarni hal qilish, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro demokratik kaolitsiyalarni shakllantirish va boshqalar bilan shug'ullanadi. Global

fuqarolik jamiyatni atamasi xalqaro nodavlat tashkilotlari, transmilliy norasmiy tarmoqlar, ijtimoiy guruhlar va harakatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning yordamida rivojlanadi. Global fuqarolik jamiyatining shakllanishi asosan ikkita sababga ko'ra sodir bo'ldi: 1) global muammolarning tabiati (masalan, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish) nafaqat milliy hukumatlar, balki ushbu muammolarni xalqaro jamoaviy boshqarishni talab qiladigan xalqaro darajadagi ishtirokchilarining paydo bo'lishiga olib keladi; 2) global muammolar bilan bog'liq bo'lган xalqaro miqyosdagi qarorlar qabul qilish tizimini yaratishga bo'lган ehtiyojning oshib borishi alohida davlatlarning siyosiy jarayonlarga aralashishini talab qiladi [3,10].

Bu tushuncha atrofida keng bahs-munozaralar borayotgan hozirgi paytda hayot faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatni yo'nalishida yagona xalqaro institutsional doiralarning shakllanishidan tortib, yagona mehnat, kapital va texnologiyalar bozorini tashkil etish masalasi ham g'oyat muhim hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, globallashuv jarayonlarining o'sishini ta'minlab, global fuqarolik jamiyatni konsepsiyasining paydo bo'lishi uchun asos yaratadi. Keyingi yillarda Global fuqarolik jamiyatni g'oyasi butun dunyoda va barcha madaniyatlarda jamoat tashkilotlari, olimlar, fuqarolar guruhlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan tomosha tadbirlari va ta'lim dasturlari orqali ilgari surilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston global fuqarolik jamiyatiga jadal ravishda integratsiyalashishga intilmoqda. Shu sababli, O'zbekistonning sa'y-harakatlari va intilishlarini batafsil tahlil qilish zarur. Fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish mamlakatimizning global fuqarolik jamiyatiga qo'shilishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga ba'zi obektiv sabablar va global o'zgarishlar ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyatni rivojlanishini ilmiy-falsafiy va siyosiy tahlil qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillari sifatida jamiyat va davlat o'rtasidagi muammolar o'rganilib, tahlil qilinmoqda. Taniqli olimlar H.Anxaer, M.Glasius va M.Kaldor o'zlarining mashhur asarlarida global fuqarolik jamiyatining uch o'lchovi haqidagi fikrlarini bildirganlar: 1) xalqaro nodavlat tashkilotlar vakolatxonalarining butun dunyo bo'yicha faoliyat olib borishi, 2) axborot, internet-texnologiyalarining jadal rivojlanishi, 3) fuqarolar faolligining o'sishi darajasi[4,61].

O'zbekistonning NNTlarni xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligi asosida global fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirishi mumkin. Shuning uchun mazkur masala falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tahlil, funksional yondashuvlar asosida o'rganishni taqozo etadi. Nazarimizda, ushbu sohada to'plangan ilmiy bilimlar, nazariyalarni o'rganish orqali O'zbekistonning kelgisidagi fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Global fuqarolik jamiyatining integratsiyasiga intilayotgan har bir davlat fuqarolar oldidagi majburiyatlarini bajarishi kerak. Shuningdek,

umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar, qonunlar va demokratik tamoyillarga rioya qilish va amalga oshirish kerak. Masalani o'rganish jarayonida biz Global fuqarolik jamiyatining integratsiyasini hisobga olish kerak bo'lgan muhim omillar mavjudligini aniqladik. Ushbu omillar quyidagilardan iborat: milliy qonunchilikni liberallashtirish; davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish; davlat organlarini fuqarolik jamiyati institutlari oldida hisobdorligini oshirish; fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat ishlarida faolligi; ochiq, demokratik va oshkora saylovlarning o'tkazilishi; gender tenglikning ta'minlanganligi; inson huquqlarining ta'minlanganligi, so'z va ommaviy axborot vositalari erkinligi; davlatning boshqa davlatlar va xalqaro nohukumat tashkilotlarga ochiqligi va tolerantligi; xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga tayyorligi. Xalqaro nohukumat tashkilotlarning O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ta'siri.

Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, xalqaro nodavlat tashkilotlar fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim omili, ammo ular hozir rivojlanishning boshlang'ich nuqtasida turishibdi. Jahonda yuz berayotgan mafkuraviy va radikal yondashuv, mafkuralar va qarashlardagi ziddiyatlarga qaramay, xalqaro nodavlat tashkilotlarning global xavf tug'diradigan sivilizatsiya muammolari va tahdidlarining mohiyatini anglay boshladи. Markaziy Osiyoning aksariyat davlatlarida xalqaro nodavlat tashkilotlar akkreditatsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelishmoqda. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi global fuqarolik jamiyati siyosiy jarayon doirasida Yevropaga integratsiyalashuv jarayonining kelajagiga doir rivojlanish vektorini aniqlashga erishdi. Shu maqsadda Markaziy Osyo davlatlari o'zaro manfaatli hamkorlik va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida jahon standartlariga yaqinlashish masalasini ko'rib chiqishi zarur, deb hisoblaymiz. Tadqiqotchi M.Muntean ta'kidlaganidek: "Ko'p jihatdan, transmilliy xarakterga ega bo'lgan global fuqarolik jamiyati jahon fuqarolik forumi, jahon fuqarolik iqtisodiy forumi va antiglobalistik harakat kabilar orqali keng miqyosda rivojlanadi. Bu yangi global va o'ziga xos ijtimoiy muhitni shakllantiradi.

XULOSA

Global fuqarolik jamiyatiga integratsiyasi uchun O'zbekiston quyidagilarni amalga oshirishi kerak. **Birinchidan**, BMT tizimi va boshqa hukumatlararo tashkilotlarda ham keng miqyosli tadbir va loyihalarda ishtirok etish, global faoliy va tashabbuskorlikni yuqori darajada kuchaytirish va real tashabbuslarni ilgari surish. **Ikkinchidan**, mahalliy NNTlarning xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorligini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, gumanitar va korrupsiyaga qarshi kurash sohalariga yaqindan hamkorlik qilish. **Uchinchidan**, O'zbekiston hukumatining xalqaro nodavlat tashkilotlarga nisbatan konstruktiv va siyosiy tolerant munosabatda bo'lishi masalaning muhim jihatni hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xalqaro nodavlat tashkilotlar global darajada fikrlashga, jahon tashkilotlarini global muammolarni xal qilishga, xalqaro

shartnomalar va bitimlarning o’z vaqtida bajarilishiga majbur qiladi. Shu bilan birga barcha ishtirokchilarni bir maqsad yo’lida birlashtiradi

Umuman olganda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- birinchidan, fuqarolik jamiyati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish milliy manfaatlar, milliy davlatchilik tizimining shakllanishi tadqiq etish bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyat sifatida umuminsoniy manfaatlar ustuvorligiga qaratilgan global fuqarolik jamiyati tamoyillarini ham o’rganishni taqozo etadi.

- ikkinchidan, global muammolar yechimi hamda jamiyat barqaror taraqqiyatining muhim shartlaridan biri jamiyatda global fuqarolik jamiyati qadriyatlарining amaliyotda namoyon bo’lishi bilan uzviy bog‘liq sanaladi.

- uchinchidan, mahalliy NNTlarning xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorligini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, gumanitar va korrupsiyaga qarshi kurash sohalariga yaqindan hamkorlik qilishi jamiyat barqaror taraqqiyotini ta’minlashda hamda milliy va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unlashuvida muhim rol o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Falk R. The changing role of global civil society. / Edited by G. Baker and D. Chandler /Global Civil Society: Contested Futures. - New York: Routledge.- 2005. - P.60-61.*
2. Гуторов В.А. Политическая культура и политическая власть в эпоху глобализации// Политическая экспертиза: ПОЛИТЭКС.- 2006. -Т. 2.- N2 4.- С. 67.
3. Ernazarov D. O‘zbekistonning global fuqarolik jamiyatiga intilishining falsafiy tahlili// https://www.researchgate.net/publication/341617485_uzbekistonning_global_fuqarolik_jamiyatiga_intilishining_falsafiy_tahlili
4. Anheier H., Glasius M., Kaldor M. Introducing Global Civil Society // Global Civil Society 2001 / Ed. H. Anheier et al. - Oxford: Oxford University Press, 2001. P. 61